




TDSHU “Sharq sivilizatsiyasi  
va falsafa” fakulteti dekani



(imzo)

M.M. Askarov


“Sharq mamlakatlari tarixi va  
antropologiyasi” kafedrası mudiri



(imzo)

Sh.I. Ikromov

TDSHU, ARM boshlig‘i



(imzo)

M. Yuldasheva

<b>Fan/modul kodi</b> GSJM1206		<b>O'quv yili</b> 2025-2026	<b>Semestr</b> 2	<b>ECTS - Kreditlar</b> 6	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy		<b>Ta'lim tili</b> O'zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 6	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>	
	<b>Globallashuv sharoitida O'zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi</b>	72	108	180	
<b>I. Fanning mazmuni</b>					
<b>Fanni o'qitishdan maqsad:</b>					
<p>Ma'lumki , hozirgi bosqichda insoniyat tarixi yangi bosqichga qarab kirib bormoqda, siyosatchilar ta'biri bilan aytganda dunyo burilish nuqtasida. Shunday sharoitda xalqaro munosabatlarda ham asosiy tushuncha va tamoyillar hamda kuch markazlarining o'zgarishiga guvoh bo'lmoqdamiz. Globallashgan dunyo tobora ko'proq hamkorlik, mintaqaviylik va xalqaro maydonda faol bo'lishni talab qilmoqda. Shu nazarda O'zbekiston tashqi siyosati ham 2017-yildan e'tiboran xalqaro munosabatlarni faollashtirish yo'liga o'tdi va sharq hamda g'arbdagi yetakchi davlatlar va eng avvalo mintaqa davlatlari bilan hamkorlikni kuchaytirishga jiddiy e'tibor qaratmoqda. O'tgan yillar davomida O'zbekiston tashqi siyosatida sodir bo'lgan o'zgarishlarni tahlil qilish va ularga ilmiy kontekstda baho berish mazkur kursning maqsadi hisoblanadi.</p>					
2.	<p><b>Fanning vazifasi</b> - Globallashgan dunyoda xalqaro munosabatlar mazmun-mohiyati va unda kuzatilayotgan transformatsiyani anglash, Globallashgan dunyoda O'zbekiston tashqi siyosatining maqsad va vazifalarini aniqlab olish, tashqi siyosatga oid hukumat qarashlarini ilmiy asoslangan holda tahlil qilish, Sharq va g'arbdagi yetakchi kuchlar hamda mintaqamiz mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarining ustuvor jihatlari, rivojlanish dinamikasi, natijalar va muammolarni tahlil qilish.</p>				
<b>Xorij tajribasiga muvofiqligi:</b>					
<p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Lomonosov Moscow State University) (THE 95) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p><a href="https://iaas.msu.ru/wp-content/uploads/2023/09/uch-plan-bak-2023.pdf">https://iaas.msu.ru/wp-content/uploads/2023/09/uch-plan-bak-2023.pdf</a></p>					

## **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

### **II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### **1-mavzu: Globallashgan dunyo tushunchasi va unda Markaziy Osiyo mintaqasining o'рни.**

Geosiyosat va geostrategiya tushunchalari. Sharqni mintaqalarga ajratishdagi turlicha qarashlar. Geosiyosatda Markaziy Osiyoning o'рни. Geosiyosiy nazariyalarda O'rta Osiyo. Geosiyosiy jarayonlarda O'zbekiston Respublikasi. Rossiya, Xitoy va AQShning Markaziy Osiyodagi raqobati. Markaziy Osiyoda mintaqaviy va transmintaqaviy derjavalarning qiziqishlari.

#### **2 - mavzu. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining shakllanish tarixi va uning asoslari**

O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoillari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IV bobi, 17 moddasi. Sh.M.Mirziyoevning 08.09.2016 Oliy majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi va unda tashqi siyosiy konsepsiyalarning aks etishi. Harakatlar strategiyasida tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy harakatlarning aks ettirilishi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assambeliyasi 72-sessiyasidagi nutqi. O'zbekiston tashqi siyosatidagi yangi tendensiyalar

#### **3 – mavzu. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan xamkorlik aloqalari**

O'zbekistonning Qozog'iston va Qirg'iziston bilan munosabatlari tarixi. Markaziy Osiyodagi xalqaro munosabatlarning xorijiy tadqiqotchilar tomonidan yoritilishidagi asosiy yo'nalishlar. O'zbekiston va Qozog'istonning siyosiy aloqalari. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi hududiy va chegraviy muammolar. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi savdo iqtisodiy va madaniy gumanitar aloqalar. O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi siyosiy aloqalar tarixi. O'zbekiston yangi raxbariyatining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlarining kengaytirilishi va barqarorlashuvi. Suv resurslarini taqsimlash muammolari.

O'zbekistonning Tojikiston va Turkmaniston bilan munosabatlari tarixi. O'zbekistonning Tojikiston va Turkmaniston bilan hamkorlik aloqalarining asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston va Tojikistonning siyosiy aloqalari. O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi hududiy va chegraviy muammolar. 1992-1996 yillardagi Tojikistondagi fuqarolar urushi sharoitida O'zbekiston va Tojikiston munosabatlari. O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi savdo iqtisodiy va madaniy gumanitar aloqalar. O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi siyosiy aloqalar tarixi. O'zbekiston yangi

raxbariyati tomonidan Tojikiston hamda Turkmaniston mamlakatlari bilan munosabatlarining kengaytirilishi va barqarorlashuvi. Suv resurslarini taqsimlash muammolari.

#### **4 - mavzu. O'zbekistonning Afg'oniston bilan munosabatlari tarixi**

Afg'on muammosi oqibatlarining Markaziy Osiyo xavfsizligi va barqarorligiga ta'siri. XX asr 90 yillari oxrida Afg'on muammosini hal qilish bo'yicha O'zbekiston tashabbuslari. BMT kuzatuvdagi 6+2 tashkilotining Afg'oniston masalasidagi Toshkent uchrashuvi. Afg'oniston muammosini barataraf etish bo'yicha O'zbekiston va Afg'oniston hukumatlarining hamkorligi dinamikasi. O'zbekistonning yangi hukumatini afg'on muammosini hal qilishga doir tashabbuslari va uning mintaqaviy ahamiyati.

#### **5 - mavzu. O'zbekistonning Turkiya va Eron bilan munosabatlari tarixi**

Markaziy osiyo Eron va Turkiya tashqi siyosatida. Markaziy Osiyoda yetakchilik uchun Eron va Turkiya raqobati. O'zbekistonning Eron va Turkiya bilan hamkorlik aloqalari tarixi. O'zbekistonning Eron va Turkiya bilan savdo iqtisodiy, madaniy gumanitar aloqalari tarixi. O'zbekiston va Turkiya hamda Eron munosabatlarining 2016 yildan boshlangan yangi bosqichi.

#### **6 - mavzu . O'zbekistonning Xitoy bilan munosabatlari tarixi**

Xitoy tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mamlakatlari. Xitoy va Markaziy osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hududiy va chegaraviy muammolar. ShXT doirasida Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorlik aloqalarining xususiyatlari. O'zbekistonning Xitoy bilan xamkorlik aloqalari tarixi. O'zbekistonning Xitoy bilan savdo iqtisodiy, madaniy gumanitar aloqalari. O'zbekiston va Xitoy munosabatlarining 2016 yildan boshlangan yangi bosqichi.

#### **7 - mavzu. O'zbekistonning Koreya Respublikasi bilan munosabatlari tarixi**

Koreya Respublikasi tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mamlakatlari. Koreya va Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorlik aloqalarining tarixi va xususiyatlari. O'zbekistonning Koreya bilan xamkorlik aloqalari tarixi. O'zbekistonning Koreya bilan savdo iqtisodiy, madaniy gumanitar aloqalari. O'zbekiston va Koreya munosabatlarining 2016 yildan boshlangan yangi

bosqichi.

#### **8- mavzu. O'zbekistonning Yaponiya bilan munosabatlari tarixi**

Yaponiya tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mamlakatlari. Yaponiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorlik aloqalarining tarixi va xususiyatlari. O'zbekistonning Yaponiya bilan xamkorlik aloqalari tarixi. O'zbekistonning Yaponiya bilan savdo iqtisodiy, madaniy gumanitar aloqalari. O'zbekiston va Yaponiya munosabatlarining bugungi holati.

#### **9 - mavzu. O'zbekistonning Hindiston bilan munosabatlari tarixi**

Hindiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mamlakatlari. Hindiston va Markaziy osiyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarining tarixiy ildizlari. Hindiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorlik aloqalarining xususiyatlari. O'zbekistonning Hindiston bilan xamkorlik aloqalari tarixi. O'zbekistonning Hindiston bilan savdo iqtisodiy, madaniy gumanitar aloqalari. O'zbekiston va Hindiston munosabatlarining hozirgi bosqichi.

#### **10 - mavzu. O'zbekistonning Pokistan va Bangladesh bilan munosabatlari tarixi**

Pokiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mamlakatlari. Pokistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarining tarixi va xususiyatlari. O'zbekistonning Pokiston va Bangladesh bilan xamkorlik aloqalari tarixi. O'zbekistonning Pokiston bilan savdo iqtisodiy, madaniy gumanitar aloqalari. O'zbekistonning Bangladesh hamda Pokiston bilan munosabatlarining bugungi holati.

#### **11 - mavzu. O'zbekistonning Osiyodagi arab mamlakatlari bilan munosabatlari bilan tarixi**

Osiyodagi arab davlatlari (SAP, Kuvayt, Qatar, BAA, Ummon va Baxrayn) tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mamlakatlari. Arab davlatlari va Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorlik aloqalarining tarixi va xususiyatlari. O'zbekistonning Arab davlatlari bilan xamkorlik aloqalari tarixi. O'zbekistonning Arab davlatlari bilan savdo iqtisodiy, madaniy gumanitar aloqalari. O'zbekiston va Arab davlatlarining munosabatlarining bugungi bosqichi.

#### **12 - mavzu. O'zbekistonning Afrikadagi arab mamlakatlari bilan munosabatlari bilan tarixi**

Misr tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mamlakatlari. Misr va Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorlik aloqalarining tarixi va xususiyatlari. O'zbekistonning Misr bilan xamkorlik aloqalari tarixi. O'zbekistonning Misr bilan savdo iqtisodiy, madaniy gumanitar aloqalari. O'zbekiston va Misr munosabatlarining bugungi holati.

**13 – mavzu. O'zbekistonning Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlari bilan tarixi**

Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mamlakatlari. Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari va Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorlik aloqalarining tarixi va xususiyatlari. O'zbekistonning Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan xamkorlik aloqalari tarixi. O'zbekistonning Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo iqtisodiy, madaniy gumanitar aloqalari. O'zbekiston va Isroil munosabatlarining bugungi holati.

**14 - mavzu. O'zbekistonning Janubiy Kavkaz mamlakatlari bilan munosabatlari bilan tarixi**

Janubiy Kavkaz va Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorlik aloqalarining tarixi va xususiyatlari. O'zbekistonning Janubiy Kavkaz mamlakatlari bilan xamkorlik aloqalari tarixi. O'zbekistonning Azarbayjon va Guruziya bilan savdo iqtisodiy, madaniy gumanitar aloqalari. O'zbekistonning Azarbayjon va Guruziya davlatlari bilan munosabatlarining bugungi holati.

### **15- mavzu: Yevropa va Osiyodagi xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar**

Yevropa va Osiyodagi xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorliklarning boshlanishi. Globallashuv jarayoni va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik imkoniyatlari. Mintaqaviy hamkorlikni ta'minlashda Yevropa va Osiyodagi xalqaro tashkilotlar faoliyati. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT). BMT faoliyatida taraqqiyot va Inson huquqlari. BMT: tinchlik, barqarorlik va hamkorlik yo'llari. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YEXHT) va uning maqsad va vazifalari. Interpol va uning tuzilmalari. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT). Mintaqaviy va xalqaro muammolarni hal etishda SHHTning roli. Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti (MOHT) va uning mintaqaviy xavfsizlik va hamkorlik masalalaridagi aloqalari. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) va uning faoliyatiga tahliliy nazar. Yangi O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarining rivojlanish bosqichi. Turkiy davlatlar tashkiloti va O'zbekiston Respublikasining ishtiroki. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasidagi nutqlari va uning ahamiyati.

### **16 - mavzu: O'zbekistonning Yevropa davlatlari bilan zamonaviy aloqalarining boshlanishi**

Respublikamizning xalqaro faoliyatida Yevropa davlatlari bilan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yilishining alohida o'rin egallashi. Yevropa davlatlarining yosh mustaqil davlatlar bilan munosabatlarini yangi bosqichga ko'tarilishi. O'zbekistonda Yevropa davlatlarining elchixonalarini ochilishi va ularning faoliyati. O'zbekiston va Yevropa davlatlari o'rtasida zamonaviy ilmiy-madaniy, iqtisodiy va xalqaro aloqalarning rivoj topishi. Yevropa davlatlari bilan hamkorlikda ta'lim sohasiga alohida e'tibor berilishi. O'zbekiston Respublikasi Yevropaning rivojlangan mamlakatlari Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqalar bilan yaqin hamkorliklari.

### **III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlarida "Globallashuv sharoitida O'zbekiston va jahon

mamlakatlari hamkorligi” fanidan ma’ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo’yicha tayyorgarlik ko’rish jarayonida qo’shimcha adabiyotlar va rasmiy hujjatlar bilan tanishish orqali qo’shimcha bilim oladilar. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi. Shuningdek, seminar mashg’ulotlarida magistrlar Globallashuv sharoitida O’zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi” fani bo’yicha ma’ruzada olgan bilim va ko’nikmalarini ushbu fandagi turli tamoyillarni amaliy masalalar, amaliy mashqlar, taqdimotlar, guruh muzokaralari orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o’quv qo’llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo’yicha taqdimotlar, bahs-munozaralar, guruh muzokaralar o’tkazish va boshqalar tavsiya etiladi.

Seminar mashg’ulotlari bo’yicha quyidagi yo’nalishlar tavsiya etiladi:

mavzu:

- 1 – mavzu. Globallashgan dunyo tushunchasi va unda Markaziy Osiyo mintaqasining o’rni.
- 2 - mavzu. O’zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining shakllanish tarixi va uning asoslari
- 3 – mavzu. O’zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan xamkorlik aloqalari
- 4 - mavzu. O’zbekistonning Afg’oniston bilan munosabatlari tarixi
- 5 - mavzu. O’zbekistonning Turkiya va Eron bilan munosabatlari tarixi
- 6 - mavzu . O’zbekistonning Xitoy bilan munosabatlari tarixi
- 7 - mavzu. O’zbekistonning Koreya Respublikasi bilan munosabatlari tarixi
- 8 - mavzu. O’zbekistonning Yaponiya bilan munosabatlari tarixi
- 9 - mavzu. O’zbekistonning Hindiston bilan munsabatlari tarixi
- 10 - mavzu. O’zbekistonning Pokistan va Bangladesh bilan munsabatlari tarixi
- 11 - mavzu. O’zbekistonning Osiyodagi arab mamlakatlari bilan munosabatlari bilan tarixi
- 12 - mavzu. O’zbekistonning Afrikadagi arab mamlakatlari bilan munosabatlari bilan tarixi
- 13 – mavzu. O’zbekistonning Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlari bilan tarixi
- 14 - mavzu. O’zbekistonning Janubiy Kavkaz mamlakatlari bilan munosabatlari bilan tarixi
- 15 - mavzu: Yevropa va Osiyodagi xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar
- 16- mavzu: O’zbekistonning Yevropa davlatlari bilan zamonaviy aloqalarining boshlanishi

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekistonning Jahon hamjamiyati bilan aloqalarining boshlanishi
2. Yevropa va Osiyo mamlakatlarining O'zbekiston bilan hamkorligining boshlanishi.
3. O'zbekistonning Yevropa va Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligi uchun ulkan imkoniyatlar mamlakati ekanligi.
4. O'zbekiston Respublikasining globallashtirish sharoitida jahon hamjamiyatidagi faol ishtiroki.
5. Yevropa va Osiyodagi Xalqaro tashkilotlar bilan har tomonlama aloqalar.
6. O'zbekistonning Yevropa davlatlari bilan zamonaviy aloqalarining boshlanishi.
7. O'zbekiston-Angliya davlatlari hamkorligi

8. O'zbekiston-Fransiya davlatlari hamkorligi.
9. O'zbekiston-Germaniya davlatlari hamkorligi
10. Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari bilan o'rnatilgan qadimiy aloqalarining yangi yo'nalishlari.
11. O'zbekiston-Yaponiya davlatlari hamkorligi.
12. O'zbekiston-Xitoy davlatlari hamkorligi.
13. O'zbekiston-Janubiy Koreya davlatlari hamkorligi.
14. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi teng tomonli hamkorliklari.
15. O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni.
16. Globallashtirish va Markaziy Osiyo davlatlari integratsion jarayoni.
17. Globallashtirish sharoitida Xalqaro Tashkilotlarning Markaziy Osiyo mintaqada xavfsizligi va integratsiyalashuv jarayonida tutgan o'rni.
18. Globallashtirish jarayonida O'zbekiston Respublikasining Yevroosiyo mamlakatlari o'rtasidagi xalqaro tashabbuslari va uning tarixiy ahamiyati.

Magistrantlar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlashda ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlardan va internet saytlaridan foydalanib, yuqoridagi mavzular bo'yicha innovatsion va axborot texnologiyalardan foydalangan holda referat, ilmiy dokladdir, prezentatsiya, mediaensiklopediyalar tayyorlaydilar. Shuningdek, fan bo'yicha ma'ruzalar matni, texnologik xaritalar ishlab chiqish; fan bo'yicha seminar mashg'ulotini rejasini ishlab chiqish va dars ishlanmasini tuzish; ma'ruza sa seminar uchun interaktiv usullar bo'yicha taqdimotlar tayyorlash va chiqish qilish; Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan mustaqil ish topshirilish talab etiladi.

3.	<p><b>Fan o'qitilishining shakllanadigan natijlari (Kasbiy kompetensiyalar)</b>  O'quv fanini o'zlashtirish natijasida magistr:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Globallashuv sharoitida jahon mamlakatlarining O'zbekiston bilan hamkorligi o'ziga xos xususiyatlari, asosiy turlari, xillari, mazmuniga qarab turkumlarga bo'linishini bilish kerak manbalarni aniqlash va uning ilmiy ahamiyatini mavzular tartibida saralash, tahlil etish uslublari haqida tassavvurga ega bo'lishi;</li> <li>• Globallashuv sharoitida O'zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi fani jahon mamlakatlari o'rtasidagi do'stlik va o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalar, ilmiy va madaniy muloqotlar, ular o'rtasidagi do'stlik va qardoshlikni mustahkamlash, dunyoda tinchlik o'rnatish kabi masalalarni tahlil qilishni bilishi va ulardan foydalana olishi;</li> <li>• Globallashuv sharoitida O'zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi fanining rivojlanish bosqichlari, tarixiy tadqiqotlar rivojidadagi va oliy ta'lim tizimidagi ahamiyati kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</li> </ul>
4.	<p style="text-align: center;"><b>V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ ma'ruzalar;</li> <li>✓ interfaol keys-stadilar;</li> <li>✓ seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>✓ guruhlarda ishlash;</li> <li>✓ taqdimotlarni qilish;</li> <li>✓ individual loyihalar;</li> <li>✓ jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> <li>✓ blits-so'rov;</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VI. Kreditlarni o'qish uchun talabalar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini tog'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma-og'zaki ish kabi topshiriqlarni bajaradi.</p>

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. G'afforov Y.X. Xalqaro tashkilotlar hamkorligi. O'quv qo'llanma. I-qism. – Toshkent, “Ishonch hamkor”. 2021. 256 b.
2. O'zbekistonning Sharq mamlakatlari bilan munosabatlar tarixi / Durbek Sayfullayev. – Toshkent, 2022. – 172 b.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, № 11.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 48b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga

kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – 56 b.

7. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: «O‘zbekiston», 2018.
8. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – T.: «O‘zbekiston», 2019.
9. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4 – jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. - 567 b.
10. Шавкат Мирзиёев ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. – Тошкент: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 бет.
11. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O‘zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, O‘zbekiston 2023.408 b.
12. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 536 b.
13. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024. – 560 б.
14. Валентини К.Л., Оролбаев Э.Э., Абылгазиева А.К., Водные проблемы Центральной Азии. Б.; 2004.
15. Jalilov A., Markaziy Osiyoning geosiyosiy mavqei “Jamiyat va boshqaruv” jurn. 2006 y. Maxsus son.
16. Jo‘rayev S va boshqalar. Xalqaro munosabatlar (geosiyosat, diplomatiya, xavfsizlik) “Akademiya” nashriyoti, 2006.
17. G‘afforov Y. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash yo‘lida “Ijtimoiy fikr-inson huquqlari” jurnali, № 4, 2005-yil.

#### Axborot manbalari

18. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
19. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
20. [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz)
21. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
22. [www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)
23. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

7.

O‘quv dasturi “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2025 – yil “21” 06 “13” - sonli

	<p>bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p> <p>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 - yil "25" 06 "11" - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun ma'sullar:</b></p> <p>t.f.n., dots, A.Xudoyberdiyev., PhD, dots, Sh.Ikromov</p>
9	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>A.Xudoyberdiyev – Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi kafedrası dotsenti, t.f.n.</p> <p>A.Xolliyev – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Jahon tarixi kafedrası t.f.d. prof.v.b.,</p>

16